



UDK:378.4(575.111):94(575.1)

To‘lqin ESHBEKOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

O‘zMU dotsenti M.Mirsoatova taqrizi asosida

MILLIY UNIVERSITET JADIDLARI

Annotatsiya

Maqolada bir asrdan ortiq davr mobaynida Markaziy Osiyoda yetakchi oliy ta‘lim muassasi sifatida e‘tirof etilgan, qator yillar turli nomlar bilan atalgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga asos solgan buyuk jadidlar va ularning munosib izdoshlari haqida so‘z yuritiladi. 1920 yillarda faoliyat ko‘rsatgan fizika va kimyo fanlari bo‘yicha tadqiqotchi-olim Husaynxon Niyoziy ilmiy-pedagogik faoliyati teran tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, Vatan, millat, taraqqiyot, jadidlar izdoshi, fizika va kimyo fanlari, ilm, tadqiqot, ijod.

JADIDS OF THE NATIONAL UNIVERSITY

Annotation

The article narrates about the great Jadids who founded the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek — which for more than one century has been recognized as a leading higher education institution in Central Asia and has been called by various names over a number of years — and about their worthy successors. The scientific and pedagogical activity of Husaynkhon Niyoziy, a researcher-scientist in the fields of physics and chemistry who worked in the 1920s, is deeply analyzed.

Key words: Jadid, homeland, nation, development, successor of the Jadids, physics and chemistry, science, research, creativity.

ДЖАДИДЫ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация

В статье ведётся речь о великих джадидах и их достойных последователях, которые основали Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, признанный на протяжении более чем одного века ведущим высшим учебным заведением в Центральной Азии и называвшийся разными именами в течение ряда лет. Глубоко анализируется научно-педагогическая деятельность исследователя-учёного в области физики и химии Хусайнхона Ниёзий, который работал в 1920-е годы.

Ключевые слова: Джадид, Родина, нация, развитие, последователь джадидов, физика и химия, наука, исследование, творчество.

Kirish. Bir asrdan ortiq davr mobaynida Markaziy Osiyoda yetakchi oliy ta‘lim muassasi sifatida e‘tirof etilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 1918 yil 12 mayda millat fidoyilari hisoblanmish jadidlar tomonidan tashkil etilgan. Uning birinchi rektori – buyuk jadid bobomiz Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li bo‘lgani qator manbalarda qayd etilgan. Adib, murabbiy, muharrir, ma‘rifatparvar, jamoat arbobi, Turkiston jadidchilik harakati yetakchilaridan biri sifatida yorqin iz qoldirgan Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining munosib izdoshlarini ham haqli ravishda jadidlar qatorida e‘tirof etsak arziydi.

Ma‘lumki, bu oliy ta‘lim muassasi 1918 yilda Musulmon xalq dorilfununi, 1918-1919 yillarda Turkiston xalq universiteti, 1919-1923 yillarda Turkiston Davlat universiteti, 1923-1960 yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti, 1960-2000 yillarda Toshkent Davlat universiteti deb yuritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 sentabrdagi “Toshkent Davlat universitetiga Mirzo Ulug‘bek nomini berish to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi. Mazkur Qarorga binoan Toshkent Davlat universitetiga Sharqning buyuk olimi va mutafakkiri Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek) nomi berilgan. Sobiq mustabid tuzum barham topgach universitetimiz buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug‘bek nomini olishi zamirida olamcha ma‘no mujassam. Bu ko‘hna tariximiz, ulug‘ ajdodlardan qolgan bebaho meroslar, ilm-u ma‘rifatga nisbatan adolatning tiklanishi, bu boradagi asl qadriyatlar tom ma‘noda qadr topishi edi. O‘zbekiston

Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000 yil 28 yanvardagi “Toshkent Davlat universitetiga “O‘zbekiston Milliy universiteti” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan bu o‘quv dargohi “Milliy universitet” maqomiga ega bo‘ldi. Shundan buyon bu oliy ta‘lim muassasi – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti deb atalmoqda. Farmonda, Vatan va millat taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan jadid ziyolilarimizning buyuk xizmatlarini e‘tirof etish, tarixiy haqiqatni tiklash, yoshlar qalbida istiqloq g‘oyalari sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy ilm-fan qadriyatlarini avlodlar ongiga teran singdirish, Toshkent Davlat universitetining azaliy yuksak mavqeini o‘z joyiga qo‘yish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani tayyorlashda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston” kitobida, 2023 yil 11 dekabr kuni “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida jadidlarning ibrat maktabi haqida bayon etilgan ilg‘or g‘oyalari o‘qib o‘rganildi.

O‘zMUning 90 yilligi munosabati bilan 2008 yilda chop etilgan “Mo‘tabar ziyo maskani (1918-2008)”, “Universitet – mening hayotimda”, “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Ilmiy maktablari” kitoblarida o‘tgan davr mobaynida yetishib chiqqan

akademiklar, jadidlar faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlar o'rganildi.

Jadidlardan biri bo'lgan Husaynixon Niyoziyning 1922 yilda chop etilgan "Hikmat va kimyo" ("Uchebnik Fiziki i ximii") darsligi, 2001 yilda chop etilgan "Husaynixon Niyoziy – xalq professori" maqolalar to'plamidan muhim fakt va ma'lumotlar o'rganildi.

Dildoraxon Abdullayeva va Iskandar Madg'oziyevning "Jadid shoir Husaynixon Niyoziy – Rizoii hayoti va faoliyati; ijodiga doir yangi manbalar", Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludining 125 yilligiga bag'ishlangan "Ajodlarni xotirlash – muqaddas qadriyat" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, Muhiddin Narziqulov va Shomaqsud Isoqovning "Hurriyat" gazetasi 2009 yil, 41-sonida yoritilgan "Samolyot yasagani uchun qamalgan olim" maqolalarini o'qib tahlil etildi.

Professor Naim Karimovning 2006 yilda chop etilgan "Husaynixon Niyoziy", Rustambek Shamsuddinovning 2001 yilda chiqqan "Istiqlol yo'lida shahid ketganlar" risolalarida mavzuga oid bayon etilgan ma'lumotlar o'rganildi.

Hasanxon va Husaynixon Niyoziyning 2025 yilda chop etilgan "Lolani parishon qil" she'riy to'plami, publitsist Muhiddin Polvonning "O'chmas chiroqlar" sarlavhali turkum maqolalarini o'qib, tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, jadid so'zi – yangi, yangilik tarafdori, degan ma'nolarni anglatishi "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida yozib qo'yilgan. So'nggi paytlarda biz jadid deganda asosan XX-asr boshida faol harakatga tushib, 1937 yillar qatag'oni qurboniga aylangan bir guruh millatparvar ziyoli bobolarimizni ko'z oldimizga keltiradigan bo'lib qoldik.

Aytish joizki, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li kabi jadidlarning ezgu ishlarini davom ettirgan olimlar, ziyolilar mazkur universitetimizda ham kam bo'lmagan. Ochig'i, millat qayg'usi bilan yashab o'tgan jadidlarning butun faoliyati biz uchun hayot maktabiga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 11 dekabr kuni bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qo'rqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo'lida fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar".

Shu asnoda so'nggi yillarda milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ajodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Millat oydinlari hisoblangan jadid mutafakkirlarimiz, erk va ozodlik yo'lida nohaq qatag'on bo'lgan bobolarimizning muqaddas xotiralarini qayta tiklashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugun Milliy maqomga ega bo'lgan universitetimizda o'tgan asrning birinchi yarmida, ya'ni, jadidlar davrida faoliyat ko'rsatgan ko'plab fidoyi professor-o'qituvchilarni bugungi talaba-yoshlarimizga ham ibrat qilib ko'rsatsak arziydi. O'tgan asrda universitetimiz rektori bo'lgan mashhur akademiklar Toshmuhammad Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Obid Sodiqov, Sag'di Sirojiddinov va boshqa fidoyi olimlar ham jadidlarning munosib izdoshlari bo'lganini e'tirof etsak arziydi. Ana shunday e'zozga munosib siymolardan biri – fizika va kimyo fanlari bo'yicha yirik tadqiqotchi-olim Husaynixon Niyoziy edi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon Davlat universiteti, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi hamkorligida tashkil etilgan "O'chmas chiroqlar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi "Jadidlar harakatining faol ishtirokchilari, shoir va olim Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludining 130, ularning farzandlari: jurnalist Kozimxon Niyozov 110, tarixchi olim Odilxon Niyozov 100, professor Nohidxon Niyoziy 95 yilligi"ga bag'ishlandi. ADU katta zalida 2025 yil 17 dekabr kuni o'tkazilgan anjumanda Niyoziy tavralludining davomchilari, jadidshunos va adabiyotshunos olimlar, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdilar.

– Fidoyi va zahmatkash ajodlarimizdan haqli ravishda faxrlansak arziydi,– dedi ADU rektori, professor Baxtiyor Akbaraliyev tadbirni kirish so'zi bilan ochar ekan. – "Bugun Sizu bizni shu dargohga yig'ilishimizga sababchi bo'lgan va xotirlashni maqsad qilganimiz ikki ulug' siymo – Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludining butun umrini millat taraqqiyoti, yurt ozodligi yo'lida baxshida qilgan asl o'zbek o'g'lonlari, Andijon jadidlarining ko'zgan ko'ringan peshqadam namoyandalari edilar. XX-asrning 20-yillari boshida otalari Xoja Muhammad Musoxon muftiy Muhammad Niyozxon eshon, shuningdek, o'zlarining ma'rifatparvarlik va vatanparvarlik yo'lidagi maqsadli intilishlari, jasorati, mardligi va yuksak axloqiy sifatleri bilan xalq o'rtasida katta obro'-e'tibor qozongan aka-uka Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludining sa'y-harakatlari tufayli vadiyda milliy ozodlik hamda jadidchilik harakati markaziga aylangan Andijonda Turkiston, Buxoro va Xorazmni SSSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil davlat tuzishni yoqlovchilar muayyan kuchga aylangan edi.

Husaynixon esa g'oyat serqirra inson bo'lib, Andijonda yetishib chiqqan iste'dodli shoir, yetuk adabiyotshunos, mohir tarjimon, kashfiyotchi, fizik-kimyogar olim edi. Afsuski, millatimizning tom ma'nodagi qahramonlari, chinakam ziyolilari bo'lgan Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludini mash'um qatag'on yillarida, ayni kuch-quvvatga to'lgan mahalida yovuz kuchlar nohaq mahv etdilar..."

Eksperimental fizika bo'yicha professor Husaynixon Niyoziyning ilmiy-pedagogik merosining bir qismi saqlanib qolgan bo'lib, hozirgi yosh avlod – talabalarimizga ilm erishda muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ulkan iste'dod sohibi bo'lgan olim yoshligida puxta bilim olish bilan bir qatorda ixtirochilikka ham qo'l uradi. Bir kuni planer yasab uchirib, hammani hayratga solgan, ko'p o'tmay oqar suvga kichik gidroelektrostansiya qurib elektr lampochkasini yondirgan! Shu tariqa yosh iqtidor sohibi fizika va kimyo fanlari bilan bir qatorda agroteknikani, iqlim muammolarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan.

1922 yilda "Turkiston" davlat nashriyoti tomonidan uning "Hikmat va kimyo" ("Uchebnik Fiziki i ximii") darsligi chop etilgan. Bu darslik soha rivojida muhim nazariy poydevor hisoblangan. Unda kimyoviy eritmalar, xususan, galvanik elementlarni kimyoviy xossalari, termodinamika, mexanika, elektr va elektr o'tkazg'ichlar va boshqa birlamchi ma'lumotlar o'quvchilarga sodda va oddiy qilib tushuntiriladi.

– Hasanxon va Husaynixon Niyoziy tavralludining 1895 yilda Andijon shahrida tavrallud topgan,– deydi ADU Filologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor Bahodirjon Rahmonov. – Otalari Xoja Muhammad Musoxon (Matmusa) muftiy vadiy miqyosida tanilgan din arbobi bo'lib, Andijon muzofotiga eshonlik qilar edi. Onalari Xanifa otin Ahmadxon hattot qizi arab va fors tillarini mukammal bilgan va Qur'oni karim oyatlarini ona tiliga bema'lal tarjima qilgan. Ana shunday oqila ona Hasanxon va Husaynixon Niyoziydek komil insonni kamolga yetkazgan.

Yoshligidan maqolalar va she'rlar yozishga ham qiziqqan Husaynixon hamisha millat dardi bilan yashaganini "Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914 yil 2 may sonda yoritilgan "Muvaffaqiyat sa'y ila bo'lur" sarlavhali maqolasidan ham bilsa bo'ladi. Husaynixon Eshonzoda taxallusi bilan yozgan maqolasida ko'tarilgan shu kungacha dolzarbligini yo'qotmagandek taassurot qoldiradi: "Ma'lumdurki, biz turkistonliklar jumla millatdin keyin qoldik.

– Otalari qo'lida arab, fors tillari, ustozlaridan tanbur, dutor va g'ijjak sozlarini mukammal o'zlashtirib, xonadonlarida she'riyat va maqom kechalarini tashkil qilishni yo'lga qo'yan, doimiy ravishda birga yuradigan, biri ikkinchisiz tura olmaydigan, bir-biriga qattiq suyanib qolgan Hasanxon va Husaynixon madrasa o'quv rejasidan matematika, kimyo, fizika fanlarining chiqarib tashlangani sababli, 15 yoshidan rus-tuzem maktabida ham saboq olib, ana o'sha dunyoviy ilmlarni hamda rus, nemis va ingliz tillarini binoyidek o'zlashtirib olgan, Rossiya va Yevropa mamlakatlaridan ko'plab nodir kitoblar yozdirib, havas qilsa arziydigan kutubxona tashkil qilgan edilar,– deydi yozuvchi Muhiddin Polvon.– 1916 yil kuz boshida Husaynixon Toshkentga keladi va Tabiat muzeyi hovlisida planer yasab, unga motorcha sotib oladi. Bir qancha urinishlardan keyin, o'sha yili kech kuzda o'zbeklardan birinchi bo'lib Shayxontohur madrasasi hovlisidan "uchuvchisiz samolyot" – planerni osmonga ko'taradi. Uchoq taxminan uch chaqirimcha parvoz qilib, o'sha davrdagi "Tatar masjid" ("Piyon bozor"), bugungi Navoiy nomidagi teatr hovlisiga kelib qo'nadi. Mirshablar "aholini qattiq qo'rqitgani" uchun aviakonstruktorni qamoqqa oladi. Shu masalada professor Zuhridin Nuriddinovning otasining xotiralari tayanib so'zlab bergan hikoyasi e'tiborga molik: "Husaynixon oq poshsho Nikolay II ga o'ta qisqa maktub jo'natadi. Unda: "Vsya moya vina v tom, chto ya lish postroil i podnyal v nebo bespilotniy apparat", degan so'zlar bor edi, xolos. Podsho uning ustiga qalam bilan "Pomilovat" deya imzo chekadi". 1917 yil fevral inqilobi kunlari olim turmadan chiqariladi. Shu-shu ilmiy-pedagogik faoliyat bilan astoydil shug'ullanishni boshlaydi. Toshkent shahridagi texnikumlar, institutlar va O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)da fizika va kimyo fanlaridan dars beradi. Olim 1922-1937 yillarda ona tilimizda birinchi marta ta'lim sohasida katta

voqelik bo'lgan "Hikmat va kimyo", "Kimyo darsligi", "Kimyo", "Fizikadan boshlang'ich musohabalar", Ruscha-o'zbekcha "Fizika terminlari", "Tuproq va o'g'it", "Fizika lug'ati" kabi ilm-fan yo'nalishidagi murakkab sohalarga oid kitoblar yozib nashr ettiradi. G'azallar va maqolalar yozib davriy matbuotda e'lon qiladi.

Andijon universitetidagi tadbir doirasida umrini ilm va ijodga baxshida etgan Hasanxon va Husaynixon Niyoziy (Rizoiy Andijoniy)lar qalamiga mansub "Lolani parishon qil" deb nomlangan (To'plovchilar: Iskandarbek Madg'oziyev va Muhiddin Polvon) she'riy-publitsistik to'plami ("Vorish nashriyot", 2025) taqdimoti ham o'tkazildi. Attoqli adabiyotshunos olim, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshevning mazkur to'plamga kirgan g'azallar haqidagi teran ma'noli, o'ta nodir xulosalarini adabiyot muxlislari mamnuniyat bilan yuksak baholadilar.

Xulosa. Bugungi kunda TOP-1000 talikka kirib, dunyodagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari qatoridan o'rin olgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 1918 yilda tamal toshini qo'yan Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadid bobolarimizning ibratli ishlarini yosh avlod uchun ulkan ibrat maktabidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 11 dekabr kuni bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidadagi o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega".

Talaba-yoshlarimizga nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda ular kimlardan ibrat olishlari maqsadga muvofiq ekanligini eslatib turish zarur. Bu borada jadid bobolarimiz bamisoli yorqin mayoqdir.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва янги Ўзбекистон. –Т.: Ўзбекистон, 2008. – 512 б.
2. Мирзиёев Ш.М. "Жадидлар: миллий ўзлик, истиклол ва давлатчилик ғоялари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўлаган табриги, ЎЗА, 2023 й. 11 декабрь.
3. "Мўътабар зиё маскани (1918-2008)". –Т.: Ғ.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – 172 б.
4. "Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг Илмий мактаблари". –Т.: Ўқитувчи, 2008. – 294 б.
5. "Университет – менинг ҳаётимда". –Т.: Ўзбекистон, 2008. – 244 б.
6. Ҳусайнхон Ниёзий. "Ҳикмат ва кимё" ("Учебник Физики и химии"), Дарслик, –Т.: Туркистон, 1922. – 280 б.
7. "Ҳусайнхон Ниёзий – халқ профессори", мақолалар тўплами, –Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат нашриёти, 2001. – 124 б.
8. Дилдорахон Абдуллаева, Искандар Мадғозиев. Жадид шоир Ҳусайнхон Ниёзий – Ризоий ҳаёти ва фаолияти; ижодига доир янги манбалар /Ҳасанхон ва Ҳусайнхон Ниёзийлар таваллудининг 125 йиллигига бағишланган "Аждодларни хотирлаш – муқаддас қадрият" Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами / Гулистон Давлат университети, 2020 йил 20 ноябрь.
9. Мухиддин Нарзикулов, Шомақсуд Исоқов. Самолёт ясагани учун қамалган олим. "HURRIYAT" газетаси, 23.09.2009 йил, №41-сон.
10. Наим Каримов. Ҳусайнхон Ниёзий. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти, Тошкент, 11-т. 2006. – 399 б.
11. Рустамбек Шамсулдинов. "Истиклол йўлида шаҳид кетганлар". –Т.: Шарқ, 2001. – 214 б.
12. Ҳасанхон ва Ҳусайнхон Ниёзий. Lolani parishon qil. –Т.: "Vorish-nashriyot", 2025. – 80 б.
13. Мухиддин Полвон. "Ўчмас чироклар". Очерклар, ЎЗА, 2025.